

## FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING ROLI

*Bayrieva Almagul, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori, siyosiy fanlar doktori*

## THE ROLE OF PUBLIC CONTROL IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

*Bayrieva Almagul, professor of Karakalpak State University named after Berdak, doctor of political sciences*

## РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

*Байрыева Алмагуль, профессор Каракалпакского государственного университета имени Бердака, доктор политических наук*



<https://orcid.org/0009-0005-3289-4648>

e-mail:

[Almagul68\\_68@mail.ru](mailto:Almagul68_68@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatini shakllantirishida jamoatchilik nazoratining o‘rni va uni takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** vakillik, hokimiyat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, demokratik davlat.

**Annotation:** This article discusses the role of public control in the formation of civil society and issues of its improvement.

**Key words:** representation, power, civil society, public control, democratic state.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль общественного контроля в формировании гражданского общества и вопросы его совершенствования.

**Ключевые слова:** представительство, власть, гражданское общество, общественный контроль, демократическое государство.

**KIRISH.** Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo‘lmagan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo‘lmagan jamiyatda to‘laqonli fuqarolik jamiyati shakllanishini tasavvur qilish qiyin.

Ma’lumki, 2018-yil 13-aprel kuni “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi[1]. Ushbu qonun doirasida jamiyatda muayyan ishlar amalga oshirildi. Ammo, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bilan bog‘liq vaziyatning murakkabligi shundaki, fuqarolik jamiyati institutlari bir tomondan davlatning ko‘magiga ehtiyoj sezishadi, ikkinchi tomondan, ular o‘zlariga madad berayotgan hokimiyat organlarining faoliyatini nazorat qilishlariga to‘g‘ri

keladi. Shu boisdan, qonunda jamoatchilik nazorati faqatgina davlat organlari faoliyati ustidan nazoratchi sifatida qaralganligi bois uning rivojlanishi va Qonunning ishlash natijadorligi etarli darajada bo‘lmadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasida Jamoatchilik nazorati tushunchasi borasida shunday ta’kidlaydi: “Shuni aniq tushunib olish lozimki, jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir.

Jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, moliya, bank, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika va transport sohalorida joriy etilishi zarur. Shuningdek, bozorlar va savdo majmualaridagi mahsulotlar va xizmat ko'rsatish sifati kabi masalalar ham doimo jamoatchilik nazoratida bo'lishi darkor"[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi [Qonunini](#) qayta ko'rib chiqish tavsiya etilgan. Unda xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan shakllarini joriy etish, jamoatchilik nazorati shakllarini amalga oshirish mexanizmlarini batafsil reglamentatsiya qilish, ularni amaliyotda samarali qo'llash, davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati, tegishli sohalardagi ishlarning holatini yaxshilashda ularning roli va samarali ishtiroki masalalariga e'tibor qaratish nazarda tutilgan[3].

**MUHOKAMA.** Mamlakatimizda "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan g'oya amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, yangi tashabbuslar, fikrlar va qarashlarni ilgari surishda yurtdoshlarimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishish vazifasi dolzarbligini namoyon etadi.

Aynan shu nuqtayi nazardan davlatimiz rahbari o'z chiqishlarida ham jamoatchilik nazoratida xalq ishtirokini kuchaytirish, shahar va qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, qurilish va obodonchilikka oid qarorlar, dastlab o'sha hududdagi aholi o'rtasida muhokama qilinib, jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazilishi shart ekanligiga alohida urg'u beradilar.

Bugungi kunda vakillik hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari yurtimizda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida hamkorlik masalalariga katta e'tibor berishi lozim.

Jamoat nazorati instituti davlat vakillik hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari

o'zaro munosabatlarida muhim unsur hisoblanadi. Ma'lumki, jamoatchilik nazorati – bu jamoatchilik ishtirokining shakli. Keng ma'noda jamoatchilik nazorati vositalariga, fuqarolarning axborot olish huquqi, so'z erkinligi, mustaqil ommaviy axborot vositalari va boshqalar kiradi.

Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati tor ma'noda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar guruhlarining davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida oshkorlikka erishishga, jamoatchilik fikrini hisobga olishga, davlat hokimiyati faoliyatining samaradorligini oshirishga, uning jamiyat oldidagi javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatidir. Jamoatchilik nazorati jarayonining institutlashuvi demokratik o'zgarishlarning qay darajada ildiz otganligini ko'rsatadi.

Jamoatchilik nazoratining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli xalqaro miqyosda ham dolzarb deb baholanadi. 2017-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar Parlamentlararo assambleyasining "Jamoatchilik nazorati asoslari to'g'risida"gi qonuni to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[4]. Ushbu me'yoriy hujjat jamoat nazorati davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va munitsipial tashkilotlar, ayrim davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa organlar va tashkilotlar faoliyati monitoringi uchun quyidagi maqsadlarga erishishda belgilangan shakllarda amalga oshiriladigan jamoat nazorati subyektlarining faoliyati sifatida qaraladi. Jamoatchilik nazoratining vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

-inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining amalga oshirilishini va himoya qilinishini ta'minlash;

-davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va munitsipial tashkilotlar, alohida davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan qarorlar qabul qilinayotganda fuqarolarning, jamoat birlashmalarining va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining fikri, taklif va tavsiyalari inobatga olinishini ta'minlash;

-davlat hokimiyati organlari, davlat va munitsipial tashkilotlar, qonunlar va boshqa

me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ayrim davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa organlar va tashkilotlar faoliyatiga jamoatchilik tomonidan baho berish.

Shu bilan birga qarorda nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlarining bunday shakllariga qo'shimcha ravishda, masalan, jamoat muhokamalari, jamoat kengashlari, ushbu ishda ko'rib chiqilgan, jamoatchilik nazorati, jamoat ekspertizasi va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida belgilangan "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oyani amalga ro'yobga chiqarish, aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko'lamini kengaytirish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, fuqarolar, jamiyat va davlatning o'zaro yaqin hamkorligini o'rnatish, shuningdek, davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jamoatchilik palatasi tashkil etildi[5]. Bundan maqsad – ushbu palata vakillik organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirishga ko'makchi tashkilot sifatida faoliyat olib borishini ta'minlashdir.

Mamlakatimiz qonunchiligida mahalliy vakillik hokimiyati tomonidan hokim, uning o'rinbosarlari va ijro hokimiyati organlari rahbarlarining hisobotlarini sessiyalarda tinglash, doimiy komissiyalar tomonidan qonunlarning va Kengash qarorlarining joylardagi ijrosini o'rganish, deputatlik so'rovi yuborish kabi nazorat shakllari belgilangan[6]. Ushbu jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunda jamoatchilik nazoratining quyidagi shakllari ko'rsatilgan:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;

- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. Shuningdek, jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan[7].

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga so'rovlar yuborishi mumkin, qolaversa, ular qonunga muvofiq davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish huquqiga ega. Jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasini ham nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.

Vakillik hokimiyati organlarining quyidagi funktsiya va vakolatlari mavjud bo'lib, ushbu funktsiyalar jamoatchilik nazorati borasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va kuchaytirish imkonini beradi. Ular quyidagilar:

- mahalliy Kengashlar tomonidan hokim, uning o'rinbosarlari, ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalarining hisobotlari va axborotlarini tinglash;

- deputat so'rovi;

- siyosiy partiya guruhlarining tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisiga va Vazirlar Kengashiga, vazirlariga hamda boshqa davlat organlari rahbarlariga, hokimlarga, hokim o'rinbosarlariga, hokimlik bo'limlari va boshqarmalarining rahbarlariga, shuningdek tegishli mahalliy Kengash hududida joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlariga so'rov bilan murojaat qilish;

- doimiy komissiyalarning tegishli hududda joylashgan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning axborotini tinglash[8].

Fuqarolik jamiyati institutlari ham jamoatchilik nazorati subyektlaridir. Davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga soʻrovlar yuborishga haqli. Fuqarolik jamiyati institutlarida muayyan hududda aholini tashvishga solayotgan masala yuzasidan murojaat yoki soʻrov yuborish orqali mazkur muammoni hal etish huquqi bor. Shu boisdan vakillik organlari va fuqarolik jamiyati

institutlari oʻz vakolatlari va huquqlaridan kelib chiqqan holda jamiyat taraqqiyoti yoʻlida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish imkoniyatlari mavjud.

Davlat vakillik hokimiyati va fuqarolik jamiyati oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladigan zamonaviy jamoatchilik nazoratining shakli – fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining, boshqa tashkilotlar va muassasalarning hisobotlarini eshitishdir.

### 1-jadval

No	Vakillik hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini taʼminlash borasidagi hamkorlik mexanizmi		
1	Vakillik hokimiyati organlarining funktsiya va vakolatlari	FJning jamoatchilik nazorati subyekti sifatidagi vakolatlari	Vakillik organlari va FJning hamkorligini kuchaytirish yoʻnalishlari
2	Ijro hokimiyati organlari rahbarlari hisobotlari va axborotlarini tinglash	Jamoatchilik eshituvi oʻtkazish; Jamoatchilik monitoringi oʻtkazish; Jamoatchilik ekspertizasi oʻtkazish	Jamiyat manfaatini taʼminlash maqsadida tegishli hududda birgalikda mansabdorlarning hisobotlarni eshitish va jamoatchilik eshituvini tashkil etish, soʻrovlar yuborish, jamoatchilik monitoringi va ekspertizasini oʻtkazish, natijalari boʻyicha tegishli organlarga xulosa berish hamda fuqarolarni xabardor qilish; Internetda hamkorlik — kollaboratsiya shaklida ishlash tizimini yoʻlga qoʻyish.
3	Deputat soʻrovi	Davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilish	
4	Vakillik organidagi siyosiy partiya guruhlarini soʻrovi	Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soʻrovlar yuborish	
5	Doimiy komissiyalarning tegishli hududda joylashgan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning axborotini tinglash.	Davlat organlarining ochiq hayʼat majlislarida ishtirok etish.	

Oʻzbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida”gi Qonunining 14-moddasida fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining, boshqa tashkilotlar va muassasalarning hisobotlarini

eshitish tartibi belgilangan. Unga asosan, “Shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yigʻini qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari

rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini; ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, ta'lim muassasalari, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar rahbarlarining hisobotlarini; tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha hisobotlarini eshitadi"[9].

Ushbu norma bo'yicha ham vakillik organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorlikni kuchaytirishi zarur. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, ta'lim muassasalari, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar rahbarlarining hisobotlarini mahallalarda eshitishni tashkil qilish orqali davlat vakillik hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi sifat jihatidan yangi mazmun kasb etishi tayin.

Hududdagi profilaktika inspektorining hisobotidan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va unga qarshi kurashish bo'yicha hamjihatlikda reja dasturlar ishlab chiqilsa, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar rahbarlarining hisobotini eshitish asnosida davlat tomonidan fuqarolarning sog'lig'ini saqlash borasida ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarf etilishi, profilaktik emlashlarni o'z vaqtida amalga oshirish va boshqa qator masalalar birgalikda ko'rib chiqilsa hududni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarning natijadorligi oshadi.

Binobarin, davlat fuqarolarning turli ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlariga xizmat qilishi, erkin muloqot, fikrlar, bahs-munozaralar, davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning faolligi fuqarolik jamiyati doimo intilib yashaydigan yuksak darajadir. Bunday yuksaklikka erishishda davlat va jamiyat, fuqarolar o'rtasidagi muloqot va hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir jihatga alohida ahamiyat berish zarur, jamiyatda jamoatchilik nazoratini sifatli ta'minlash uchun, avvalo, fuqarolarning axborot olish va xabardorlik darajasi yuqori bo'lishi kerak, so'ngra o'sha hudduda qarorlar, dasturlar ishlab chiqilishida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etgan bo'lishi kerak. Demak, qarorlar tayyorlanishidan xabardor bo'lgan va qarorlar qabul qilinishida ishtirok etgan fuqarolarning ularning ijrosini nazorat qilishi oson bo'ladi.

**NATIJARLAR.** Tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyatni taraqqiy ettirish uchun vakillik hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan muayyan bosqichlarda jamoatchilik ishtirokini oshirish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Strategiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

**birinchidan,** fuqarolarning axborot olish va xabardorlik darajasini oshirish;

**ikkinchidan,** jamiyat ahamiyatiga molik hujjatlar qabul qilinishida jamoatchilik maslahatlashuvlarini o'tkazish;

**uchinchidan,** jamoatchilik nazoratini ta'minlash kabi bosqichlarda hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu strategiyaning mohiyatini tahlil qilishga harakat qilamiz. Biror bir sohani olaylik, masalan, hududda siyosiy madaniyatni oshirish masalasi. **Birinchi bosqichda** siyosiy madaniyat bo'yicha hududdagi holat, shart-sharoit, imkoniyatlar, amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar yuzasidan davlat hokimiyati organlari tomonidan fuqarolarga zarur axborot berilsa, keng ma'lumotlar etkazilsa fuqarolarda o'sha soha bo'yicha fikrlar, tashabbuslar shakllanadi, siyosiy madaniyatni oshirish borasida o'z tajribalari, bilim va ko'nikmalarini hamda hokimiyatdan olinayotgan axborotlarni sintez qilgan holda muayyan g'oya va tashabbuslarga ega bo'ladi. Demak, aholi xabardorlik darajasining yuqoriligi, jamiyatdagi masalalar haqida fuqarolarning o'z fikri, taklif va tavsiyalari, tashabbuslari shakllanishini ta'minlaydi.

**Ikkinchi bosqichda** fuqarolarning xabardorlik darajasi yuksalgach, siyosiy madaniyatni oshirish bo'yicha muayyan qarorlar, dasturlar, strategiyalarning loyihalari shakllanayotganida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining turli usullarda jalb qilinishi, ular bilan maslahatlashuvlarning o'tkazilishi loyihalarni real taklif va tavsiyalar, hudud aholisining talab va ehtiyojlari ifodalangan bandlar bilan to'ldirilishini, ularning xalqchil va hayotiy hujjat sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi.

**Uchinchi bosqichda** fuqarolik jamiyati institutlari vakillik hokimiyati orqali jamiyatda siyosiy madaniyatni oshirish masalasida to'la-to'kis axborotlarga ega bo'lgach, shuningdek, qarorlar yoki dasturlar qabul qilinishida ongli ravishda ishtirok etgach, ushbu dasturlar va qarorlarning ijrosini

nazorat qilishi ham osonlashadi. Fuqarolar axborot bilan ta'minlangach, xabardorlik darajasi yuqori bo'ladi va qarorlar, dasturlarni ishlab chiqishda o'zlarining real fikrlarini beradi, qarorlarni hayotiy qabul qilinishiga hissa qo'shadi, shundan so'ng o'sha hujjat ijrosi ustidan jamoatchilik nazorati ham sifatli bo'ladi.

Agar fuqarolik jamiyati institutlari vakillari qarorlar ijrosini nazorat qilishda qiyinchiliklar, muammolarga duch kelishsa, navbatdagi qarorlar va dasturlarni qabul qilishda yanada mas'uliyatliroq bo'lishga harakat qilishadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiyatini aniq belgilash kerak. Jamoatchilik ma'qul desa – ma'qul, noma'qul desa – noma'qul bo'ladi"[10].

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, har qanday demokratik davlatga xos bo'lgan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini bizning yurtimizda ham takomillashib, davr talablariga moslashib borishini uzluksiz ravishda ta'minlash zarur. Chunki jamoatchilik nazorati turmushimizning har bir sohasining shaffofligini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон <https://www.lex.uz/ru/docs/3679099?twolang=true>
2. Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. [uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019](http://uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги "Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ислохотлар устидан жамоатчилик назорати самарадорлигини, шунингдек, фуқароларнинг демократик ўзгартиришлардаги фаоллигини оширишга оид қўшимча чоратadbirlar тўғрисида"ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.10.2019 й., 07/19/4473/3864-сон.

4. Модельный закон об основах общественного контроля. Межпарламентская Ассамблея государств – участников Содружества Независимых Государств.17.03.2017.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида"ги Фармони. <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-uzuridagi-zhamoatchilik-pa-17-04-2020>.

6. Юлдашев А.Э., Ельшов М.Л., Хасанова М.Б. Организация деятельности партийных групп политических партий в местных Кенгашах народных депутатов: методические рекомендации. - Т.: Ворис, 2014. –Б.41.

7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон. <https://www.lex.uz/ru/docs/3679099?twolang=true>

8. Йўлдошев А. Ўзбекистонда депутатлик назоратини кучайтиришнинг айрим назарий-ҳуқуқий масалалари // Жамият ва бошқарув. 2014. № 2. –Б.52.

9. Қаранг: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)). – 2018; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2018. – № 15. 304-модда.

10. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси](https://uza.uz/uz/documents/shavkat-mirziyevning-olij-majlisiga-murojaatnomasi) // UzA.Uz. 25.01.2020.

